

## "NAJOT TA'LIMDA, NAJOT TARBIYADA, NAJOT BILIMDA"

*Jizzax viloyati Zomin tumani 56-o'rta ta'lim maktabning*

*boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi*

***Anorboyeva Gulnora Ochilovna***

Annotatsiya: Maqolada Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlari, islomda bolalar tarbiyasi to'g'risida so'z yuritilgan. Shuningdek, Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta'lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g'oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to'g'ri foydalanish pedagogik ta'lim jarayonida o'qituvchining pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: axloqiy qoida, tarbiya, odob, barkamol inson, insonparvarlik, ma'naviy fazilatlar, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyat, milliy tafakkur, islom madaniyati.

Ta'lim va tarbiya nafaqat bugungi, balki barcha davrlarda ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Tarbiya haqida so'z ketar ekan, buyuk ma'rifatparvar, Turkistonda jadidchilik harakatining yorqin namoyandasi Abdulla Avloniyning: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir", degan so'zlari yodimizga tushadi. Darhaqiqat, tarbiya insonning asl siyratini ko'rsatuvchi shaffof oinadir. Tarbiyasiz inson ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar faqat tarbiya tufayli bir avloddan boshqasiga o'ta oladi. Bugungi kunda yurtimizda ta'lim va tarbiyaning uzviyligiga yuqori darajada e'tibor qaratilmoqda. Ertamiz egalari bo'lgan dilbandlarimizning ta'limu tarbiyasiga e'tibor davlat siyosatining asosiy maqsad va yo'nalishlaridan biridir. Buni Prezidentimizning 2023-yilga "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deya nom berganining o'ziyoq isbotlab

turibdi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimini rivojlantirish, bu orqali islohotlarni samarali amalga oshirishga tayanch bo‘la oladigan kadrlarni tayyorlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu borada 2022-yilda bajarilgan ishlar, erishilgan natijalar talaygina desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bundan 6 yil avval yurtimizda 77 ta oliy o‘quv yurti faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2022-yili ular soni 198 taga yetdi. Oliy ta’lim muassasalariga qamrov darajasi shu 6 yillik davrda 9% dan 38% ga yetkazildi. Xususan, 2016-yilda bakalavriatga qabul 58 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilda – 223 ming nafarga, magistratura bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich 5 mingdan 16 mingtaga yetkazildi.

OTMlarga moliyaviy hamda akademik mustaqillik berilishi, sohada xotin-qizlar ta’limiga e’tibor, raqamlashtirish hamda ilm-fan va ishlab chiqarishning yangi bosqichga ko‘tarilishi har bir oliy ta’lim muassasasida o‘ziga xos maktab yaratish imkonini berdi.

Xalqaro kongress markazida tashkil etilgan ta’lim sifatini oshirish va yangi avlod darsliklarini joriy etishga bag‘ishlangan tadbirda shaxsan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ishtiroki hamda ustoz va murabbiylar bilan norasmiy muhitda olib borgan muloqoti yuqoridagi fikrimizning yorqin isbotidir.

E’tirof etish kerakki, bugungi jamiyatda o‘qituvchi va murabbiylar maqomi qaytadan yuksaldi. Ularga sifatli ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishlari uchun zarur shart-sharoit yaratilib, ijtimoiy-huquqiy, moddiy qo‘llab-quvvatlash choralari ko‘rilmoqda. O‘qituvchilarga ustamalar to‘lash hamda rag‘batlantirish mezonlari kengaytirildi, ularning kasbiy faoliyatiga noqonuniy aralashish, boshqa mehnatga jalb qilish javobgarlikka tortilishi qonuniy asosda belgilab qo‘yildi. Zero, davlatimiz rahbarining: “...Muallimning obro‘-e’tibori – bu avvalo millatning, butun xalqning obro‘-e’tiboridir”, degan so‘zlari hayotda o‘z aksini ko‘rsatdi.

Ta’lim-tarbiya jarayonlariga davlat taqdirini hal etuvchi omil sifatida yondashish, o‘qituvchiyu murabbiylar Yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanch sifatida ko‘rilishi juda quvonarli hol. Yangi jamiyatda ta’lim-tarbiya jarayonlariga berilayotgan e’tibor, undan kutilayotgan istiqbolli natijalar ko‘lami bizni

ushbu sohaning bir vakili sifatida quvontirishi bilan birga zimmamizga ulkan mas'uliyat ham yuklaydi.

Prezidentimiz 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida ta'lim tizimini isloh qilish, qamrovni hamda ta'lim sifatini oshirishga alohida to'xtalib, bu borada olib borilayotgan islohotlarning bevosita ishtirokchilari sanalgan oliygoh rektorlari, professor-o'qituvchilar bu jarayonlarda faol bo'lishi, yangi ilg'or metodikalarni joriy qilishlari kerakligini ta'kidladi.

Ilm-fan, suv va energiyani tejash, tuproq unumdorligiyu hosildorlik, geologiya, ishlab chiqarish, muqobil energiyadan foydalanishni rivojlantirish kabi biz uchun dolzarb yo'nalishlarda aniq vazifalarni belgilab berdi. Shuningdek, ilmiy salohiyatni, professor-o'qituvchilarning malakasi-yu til bilish darajasini oshirish, milliy va xalqaro reytinglarda universitetlarning o'z nufuzi, o'rnini egallashiga qaratilgan masalalar ham Murojaatnomada o'z aksini topdi.

Shu o'rinda aytish kerakki, yosh kadrlarga sifatli ta'lim berish, ular bilan ishlash, iqtidoru salohiyatlarini yuzaga chiqarish, ilm-fanga rag'batini kuchaytirish masalalari Farg'ona davlat universiteti jamoasining ham asosiy va muhim vazifasi sifatida alohida e'tiborda.

Kuni kecha e'lon qilingan natijalarga ko'ra, 2022-2023 o'quv yilida respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriat talabalari uchun ajratilgan Prezident va nomdor stipendiyalarga oliygohimizning 18 nafar talabasi munosib ko'rilgani bizga faxr va iftixor bag'ishlaydi.

Har qanday jamiyatda yoshlarning ta'lim-tarbiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etar ekan, ularni bu borada yetuklikka yetaklash biz pedagoglarning asosiy va muhim vazifamiz bo'lib qolaveradi. Shunday ekan, har birimiz Vatan hamda millat ravnaqi uchun o'z vazifamizni sidqidildan, yuksak mas'uliyat bilan ado etmog'imiz darkor. Zero, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda" g'oyasining mazmuni ham aynan shunga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. T.: “Hilol-nashr”. 2013 y.
2. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma’naviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 2008 y.
3. M.Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma’naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.
4. M.Shoxadjayev. Burxoniddin Marg’inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2006 y.
5. M.Hamdamova. Ma’naviyat asoslari. T.: “Fan va texnologiya”. 2008 y.
6. S.Dolimov, U.Dolimov. Kaykovus unsurulmaoniy qobusnoma T.: “Istiqlol” 1994 y.
7. San’at – yoshlar nigohida. Magistrantlarning ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. T.: 2019 y.
8. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O’qituvchi. 1992 y.
9. Y.Abdullayev. Eski maktabda xat-savodga o’rgatish. T.: 1960 y. 38-bet
10. I.Karimov. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008 y.
11. Sh.Mirziyoyev. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qiilinganligining 24 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. T.: 2016 y.
12. Z.B.Jalilov. Sharq mutafakkirlari merosini o’rganishning didaktik metodlari. Zamonaviy ta’lim jurnali. 2017 yil, 5-son. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021 ISSN 2181-063X